


IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

Joriy davrda 3 459,1 mlrd so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘shish sur‘ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 109,3 foizni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 70,2 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 2,0 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 51,2 foiz o‘zlashtirildi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 3 338,9 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 98,0 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 112,0 foiz o‘zlashtirildi.







Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (2022- yil yanvar- mart)

	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	hajmga nisbatan, % da
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar	3 459,1	109,3	100,0
Markazlashgan investitsiyalar:	70,2	51,2	2,0
Budjet mablag'idan	51,5	78,1	1,5
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari	17,8	64,2	0,5
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	0,9	11,2	0,03
Markazlashmagan investitsiyalar:	3 388,9	112,0	98,0
Korxona o'z mablag'lari	1032,5	2,5 m.	29,8
aholi mablag'lari	285,5	149,0	8,3
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	1 609,2	68,6	46,5
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	461,7	5,9 m.	13,4


Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da (2022- yil yanvar- mart)



Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da
(2022- yil yanvar- mart)



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
(jami hajmdagi ulushi, % da)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori ko'rsatkich tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 5,9 martaga oshdi.




Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

Shahar va tumanlar	Jami		shu jumladan: xoriy investitsiya va kreditlar	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %
➤ Viloyat bo'yicha	3 459,1	109,3	1 627,0	68,6
shaharlar:				
➤ Navoiy	990,2	142,6	291,4	114,4
➤ Zarafshon	246,9	79,1	198,0	66,4
➤ G'ozg'on	34,7	120,9	30,8	132,2
tumanlar:				
➤ Karmana	323,5	54,7	34,0	6,5
➤ Konimex	88,8	23,3	-	-
➤ Qiziltepa	200,6	174,4	30,6	58,9
➤ Navbahor	93,8	2,9 m.	8,6	2,6.
➤ Nurota	250,2	6,6 m.	163,9	25,0 m.
➤ Tomdi	859,7	102,2	840,9	102,0
➤ Uchquduq	78,3	3,0 m.	25,3	2,7 m.
➤ Xatirchi	292,4	2,8 m.	3,5	17,7

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari, % da



Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da







Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	Jami	Shu jumladan, mulkchilik shakllari bo'yicha	
		davlat	nodavlat
Jami, mlrd. so'm	3 459	420,0	3 039
<i>shu jumladan:</i>			
umumiy hajmga nisbatan, % da	100,0	12,1	87,9
mashina, uskunar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari	2 054	150	1 904
qurilish-montaj ishlari	1 249	217	1 032
boshqa xarajatlar	156	53	103

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, mlrd. so'm




Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, % da



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida Navoiy viloyati bo'yicha mashina, uskunarlar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari ulushi- 59,4 foiz, qurilish-montaj ishlari- 36,1 foiz hamda boshqa harajatlar- 4,5 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilishi: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 178,8 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 5,2 foiz), tog'- kon sanoatida 20,3 mlrd. so'm (0,6 foiz), qayta ishlash sanoati jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 2 330,0 mlrd. so'm (67,4 foiz), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 67,9 mlrd. so'm (2,0 foiz), qurilish sohasida 130,2 mlrd. so'm (3,8 foiz), ulgurji va chakana savdo sohasida 87,4 mlrd. so'm (2,5 foiz), tashish va saqlash 222,7 mlrd. so'm (6,4 foiz) hamda boshqa faoliyat turlari bo'yicha 421,8 mlrd. so'm (12,1 foiz) ni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan % da)



2022- yil yanvar- mart oylarida umumiy maydoni 153,4 ming kv.m. (2021- yilning mos davriga nisbatan 124,6 %) bo'lgan 520 xonadonga ega bo'lgan turar - joylar, ulardan 121,4 ming kv.m. (120,6 %) bo'lgan 435 ta xonadonlar qishloq joylarda ishga tushirildi.

Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari
(2022- yil yanvar- mart oylari)


Joriy yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatida jami 1 064,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 106,6 % ni tashkil etdi.






Qurilish ishlari hajmining tarkibi va ulushi (2022- yil yanvar- mart oylari)

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 223,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan 99,7 % ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 21,0 % ni tashkil etdi.




Bajarilgan qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlarning ulushi va o'sish sur'ati, % da





Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar


■ 2021- yil yanvar-mart
■ 2022- yil yanvar-mart

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022-yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,8 foizi to'g'ri kelib, 2021-yil yanvar-mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan 2,7 foiz punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan 102,2 foiz ni tashkil etgan holda 583,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 52,0 mlrd. so'm yoki 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 25,4 foiz qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 1 012,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 127,7 foizni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari (2022- yil yanvar- mart oylari)


	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulk*		Davlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd. so'm	ulushi, % da
Viloyat bo'yicha:	1 064,1	1 012,1	100,0	52,0	100,0
Navoiy sh.	222,3	207,0	20,4	15,3	29,5
Zarafshon sh.	264,1	228,8	22,6	35,3	67,9
G'azg'on sh.	8,3	8,3	0,8	-	-
Karmana t.	97,9	97,9	9,7	-	-
Konimex t.	10,4	10,4	1,0	-	-
Qiziltepa t.	207,3	207,3	20,5	-	-
Navbahor t.	73,7	73,7	7,3	-	-
Nurota t.	69,2	69,2	6,8	-	-
Tomdi t.	6,9	6,9	0,7	-	-
Uchquduq t.	19,1	19,1	1,9	-	-
Xatirchi t.	84,9	83,5	8,3	1,4	2,6

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Navoiy viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2021- yil, yanvar-mart



2022- yil, yanvar-mart



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 10,3 foiz tashkil etib, 2021-yil yanvar- mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan 18,1 foiz punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021-yilning yanvar-mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan 65,5 foiz punktga ko'payib, 13,9 foizni tashkil etdi.


Norasmiy sektorning ulushi esa 2021-yil yanvar- mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan 24,2 foiz punktga ko'payib, 4,2 foizni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 20,4 foizni tashkil etdi va 2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan 5,4 foiz punktga ko'paydi.


Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 79,6 foiz (8,1 foiz punktga kamayish).



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan 6,3 foiz punktga kamaydi va 18,9 foizni tashkil etdi.

Qolgan 81,1 foizi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 6,3 foiz punktga ko'paydi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari (2022- yil yanvar- mart oylarida)

Eng yuqori hajm (mlrd. so'm)



Kichik hajm (mlrd. so'm)

